




**Bankni strategik rivojlantirish
departamenti**

Jahon va moliya bozorlariga oid sharh

08 iyun, 2026 yil

SQB,NBU,AGRO BANK va IPOTEKA BANK evrobondlarining daromadliligi (20 oktabr 2025 yildan 25 may 2026 yilgacha Bloomberg ma'lumotlariga ko'ra, foizlarda)



NBU evrobondlarining daromadliligi

O'tgan hafta NBU evrobondlarining daromadliligi 6,038% darajasida bo'lgan. Haftaning yakunida daromadlilik ko'tarilib 6,091% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon bu ko'rsatkich 5,612-6,624% gacha o'zgarib turdi.



IPOTEKA BANK evrobondlarining daromadliligi

O'tgan hafta IPOTEKA BANK evrobondlarining daromadliligi 6,39% darajasida bo'lgan. Haftaning yakunida daromadlilik pasayib 6,318% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon bu ko'rsatkich 5,733-6,724% gacha o'zgarib turdi.



AGRO BANK evrobondlarining daromadliligi

O'tgan hafta AGRO BANK evrobondlarining daromadliligi 6,303% darajasida bo'lgan. Haftaning yakunida daromadlilik ko'tarilib 6,317% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon bu ko'rsatkich 6,067-7,059% gacha o'zgarib turdi.



SQB evrobondlarining daromadliligi

2024-yil iyul oyida SQB Londondagi fond birjasida xalqaro obligatsiyalarni joylashtirdi. Savdolarning birinchi kunida ularning daromadliligi 9,362%ni tashkil etdi.

SQB obligatsiyalarining daromadliligi o'tgan hafta boshida 6,253% darajasiga yetdi. Haftaning oxiriga kelib esa bu ko'rsatkich ko'tarildi va 6,263% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon daromadlilik 5,79% – 7,038% gacha o'zgarib turdi.


2025-yil oktyabr oyida SQB muvaffaqiyatli ravishda Londondagi fond birjasida xalqaro qo'shimcha birinchi darajali kapital (AT1) obligatsiyalarini joylashtirdi. Savdolarning birinchi kunida ularning daromadliligi 9,276%ni tashkil etdi.

SQB obligatsiyalarining daromadliligi o'tgan hafta boshida 9,399% darajasiga yetdi. Haftaning oxiriga kelib esa bu ko'rsatkich ko'tarilib va 9,468% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon daromadlilik 8,978% – 9,679% gacha o'zgarib turdi.

SOFR va Euribor


AQSH va Yevropadagi banklararo kreditlar bo'yicha o'rtacha foiz stavkasi

SOFR dinamikasi



Yil boshidan buyon SOFR stavkasi 3,5-3,73% atrofida barqaror bo'lib turmoqda. Haftaning boshida SOFR stavkasi 3,65% ni tashkil etdi, haftaning oxiriga kelib ko'rsatkich pasayib— 3,63% darajasida qoldi. Bu bozor likvidligi va monetar siyosatdagi kutilmalarning o'zgarishlarini ko'rsatadi. Federal rezervning foiz stavkalari bo'yicha pozitsiyasi SOFR stavkasi darajasini belgilashda davom etmoqda. Siyosiy o'zgarishlar kutilmalari stavkada kichik o'zgarishlarga olib kelishi mumkin.


Euribor dinamikasi



Euribor kutilganidan tezroq pasaymoqda. Yevropa Markaziy banki foiz stavkasini tez sur'atlar bilan kamaytirishni davom ettirmoqda. Buning sabablaridan biri – inflyatsiyaning pasayishi. Yevropadagi ko'plab ipoteka kreditlari bog'langan Yevropa banklararo stavkasi (Euribor) o'tgan haftaning boshiga kelib 2,312% (3 oylik) va 2,584% (6 oylik) darajalariga tushdi. 2023-yilning oktyabr o'rtalarida foiz stavkasi 4% dan oshgan edi. Euribor stavkasining tarixdagi eng yuqori darajasi 2008-yilning qishida qayd etilgan bo'lib, u deyarli 5,5% ni tashkil etgan. Yil boshidan buyon maksimal ko'rsatkichlar 2,619% (6 oylik) va 2,312% (3 oylik) ni tashkil etdi.


O'zbekiston valyuta bozori

O'zbekiston Respublikasi valyuta birjasidagi savdo hajmi, mln dollar



- ✓ O'tgan hafta valyuta birjasidagi savdo 938,2 million dollarni tashkil etdi, bu o'tgan haftaning savdo hajmiga nisbatan 466,0 million dollarga ko'proq.
- ✓ O'tgan haftaning boshida milliy valyutaning dollarga nisbatan maksimal kursi 11 949 so'mni tashkil etdi, keyin haftaning oxiriga kelib ko'tarilib 12 049 so'mga yetdi.
- ✓ Har yili so'm o'rtacha 3,5-4,5% ga devalvatsiyaga uchraydi, 2023-yildan tashqari (9,77%), bu holat Rossiya valyutasi devalvatsiyasi eksport tushumlari kamayishi va mehnat migrantlarining pul o'tkazmalari bilan bog'liq edi. Joriy yil boshidan buyon devalvatsiya o,81% ni tashkil etdi.

Dollarning so'mga nisbatan almashinish kursi



08.06.2026 yil holatiga ko'ra, aholi uchun dollar sotib olishda eng foydali kurs *Poytaxt banki* da qayd etilgan – 12 013 so'm. Boshqa banklarda esa kurs 12 020 – 12 030 so'm atrofida o'zgarib turdi.



Aholi uchun dollar sotish bo'yicha eng foydali kurs *Opne bankda* qayd etilgan – 12 010 so'm. Boshqa ko'plab banklarda esa kurs 12 000 – 11 950 so'm atrofida bo'lgan.


Valyuta juftliklariga oid sharh (Refinitiv Eikon)




USD/RUB kursining ko'tarilishi

01.06 dan 05.06 gacha bo'lgan davrda USD/RUB kursi o'suvchi dinamikani namoyish etib, 72,3 rubldan 74,3 rublgacha ko'tarildi. Kursning o'sishi AQSh dollariga nisbatan rublning qadrsizlanganidan dalolat beradi. Maksimal ko'rsatkich 04.06 sanasida 74,6 rubl darajasida qayd etildi. Bir necha kunlik o'sishdan so'ng, 05.06 holatiga ko'ra 74,3 rublgacha bo'lgan biroz korreksiya (pasayish) kuzatildi. Ko'rib chiqilayotgan davrning so'nggi kunidagi pasayishga qaramay, umumiy trend dollar uchun ijobiy bo'lib qolmoqda. Mazkur holat xorijiy valyutaga bo'lgan talabning saqlanib qolayotganini ko'rsatadi.


USD-RUB dinamikasi



RUB-YUAN dinamikasi



EUR-USD dinamikasi



Iyun oyi boshida RUB/CNY kursining mustahkamlanishi

01.06 dan 05.06 gacha bo'lgan davrda RUB/CNY kursi mo'tadil o'sishni namoyish etib, 10,0 dan 10,3 gacha ko'tarildi. Kursning asosiy mustahkamlanishi kuzatuvning dastlabki uch kuniga to'g'ri keldi. 03.06 sanasidan boshlab ushbu ko'rsatkich 10,3 darajasida barqarorlashdi va davr yakuniga qadar o'zgarishsiz qoldi. So'nggi kunlarda sezilarli tebranishlarning kuzatilmagani bozorda qisqa muddatli muvozanatga erishilganidan dalolat beradi. Umuman olganda, kurs dinamikasi ko'rib chiqilayotgan davrda Xitoy yuanining rublga nisbatan barqaror mustahkamlanganini ko'rsatmoqda.



EUR/USD kursining pasayishi

01.06 dan 05.06 gacha bo'lgan davrda EUR/USD valyuta juftligi biroz pasayishni namoyish etib, 1,1665 dan 1,1644 gacha tushdi. Kursning asosiy pasayishi 03.06 gacha kuzatildi va shu kuni ko'rsatkich 1,1633 darajasidagi minimumga yetdi. Keyingi kunlarda mo'tadil korreksiya (tiklanish) yuz bergan bo'lsa-da, kurs davr boshidagi ko'rsatkichdan pastligicha qoldi. Juftlikdagi tebranishlar cheklangan xarakterga ega bo'ldi, bu esa bozorning nisbatan barqarorligidan dalolat beradi. Umuman olganda, ko'rib chiqilayotgan davr mobaynida AQSh dollari yevroga nisbatan biroz mustahkamlandi.

Asosiy xom ashyo tovarlari narxlariga oid tahlil



Oltin narxlarini dinamikasi
(bir untsiya uchun,
AQSh dollarida)



Oltin narxining pasayishi


01.06 dan 05.06 gacha bo'lgan davrda oltin narxi 4483,3 dan 4328,8 gacha pasaydi. 02.06 sanasidagi qisqa muddatli o'sishdan so'ng, kotirovkalarning davr yakuniga qadar davomiy pasayishi kuzatildi. Eng keskin tushish kuzatuvning so'nggi kunlariga to'g'ri keldi. Umuman olganda, narx dinamikasi barqaror pasayish harakati bilan xarakterlanadi. Bu oltin bozorida sotuvchilar bosimining kuchayganidan dalolat beradi. Ko'rib chiqilayotgan davrda umumiy tendensiya salbiy (pasayuvchi) bo'lib qolmoqda.



Brent neft narxining o'sishi va undan keyingi korreksiya

01.06 dan 05.06 gacha bo'lgan davrda Brent nefti narxi avvaliga o'sish tendensiyasini namoyish etib, 03.06 sanasiga kelib 94,98 dan 97,81 gacha ko'tarildi. Biroq shundan so'ng keskin pasayish yuz berdi va 05.06 holatiga ko'ra kotirovkalar 93,09 gacha tushib ketdi. Umuman olganda, narx dinamikasi davr o'rtasida trendning burilishi bilan birga keskin tebranuvchanlik bilan xarakterlanadi. Mazkur davr uchun yakuniy harakat pasayuvchi bo'ldi. AQSh dollarining mustahkamlanishi narxlarga qo'shimcha bosim o'tkazgan bo'lishi mumkin, bu esa an'anaviy ravishda xomashyo aktivlarining jozibadorligini kamaytiradi. Shuningdek, narxning pasayishi makroiqtisodiy noaniqlik fonida neftga bo'lgan talabning zaiflashishi kutilmalari bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin.

Brent nefti narxlarini dinamikasi
(bir barrel uchun,
AQSh dollarida)



TTF gaz narxlarini dinamikasi
(megavatt-soat uchun,
AQSh dollarida)



TTF gaz narxlarini tebranishining tahlili



01.06 dan 05.06 gacha bo'lgan davrda TTF gazi narxi turli yo'nalishli (o'zgaruvchan) dinamikani namoyish etdi. 02.06 sanasida narxning 54,8 gacha pasayishidan so'ng, 03.06 da 56,3 gacha tiklanish o'sishi kuzatildi. Shundan keyin kotirovkalar 04.06 da ushbu darajada barqarorlashdi va 05.06 holatiga ko'ra 55,8 gacha biroz pasaydi. Umuman olganda, narx dinamikasi aniq ifodalangan barqaror trendga ega bo'lmagan tebranuvchan xarakterga ega, bu esa bozorda talab va taklif omillarining muvozanatlashganidan dalolat beradi.

Yangiliklar

Kaspi Bank mobil ilova orqali ovozli buyruq yordamida pul o'tkazish funksiyasini joriy etdi.



KBC Bank kreditlar va jamg'armalar bo'yicha maslahat berishga mo'ljallangan, sun'iy intellekt negizida yaratilgan virtual yordamchini taqdim etdi.



Akbank Face ID orqali ishlaydigan, bank kartalarisiz xizmat ko'rsatuvchi yangi avlod bankomatlarini joriy etdi.



ING Bank Mastercard kompaniyasi bilan hamkorlikda yanada tezkor va xavfsiz onlayn-operatsiyalarni amalga oshirishga mo'ljallangan yangi sun'iy intellekt (AI) to'lov tizimini sinovdan o'tkazdi.

